



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixov o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИСЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVATION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abduxalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIVAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадилова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIVASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIVAVIY TAHLILI.....	136
Musayeva Shoirazimovna	



KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH.....	144
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI.....	149
Madraximov Ilxom Kamilovich	
FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI.....	154
Zaripov Xusan Baxodirovich	
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION MODERNIZATSIYA QILISHDA INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	159
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	163
Jalilov Jamshid G'anjionovich, Safarov Zavqiddin Zokir o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	168
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
РОЛЬ СМЕШАННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ (BLENDED FINANCE) В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ: УРОКИ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН.....	174
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KORXONALARDA STRATEGIK BOSHQARUV.....	180
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
BANK TIZIMIDA MARKETING AHAMIYATI VA BANK MARKETINGI.....	184
Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORJIY KREDIT MABLAG'LARINI JALB KILISH HUQUQIY JIHATLARI.....	189
Qulliyev Anvar Zayniddinovich	
TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA CHAKANA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	194
Alimov Umid O'ktambayevich	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI PASPORTI TIZIMINI JORIY ETISH OMILLARI VA TO'SIQLARI.....	200
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
KORXONALARDA FOYDA VA ZARARLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION METODLAR AHAMIYATI.....	207
Ernazarov Ortiq Eshnazarovich, Farog'at Xo'jabekova	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ БЛАГОСОСТОЯНИЕ, А ТАКЖЕ НОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ.....	212
Останов Эгамберди	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYALASH: MOHIYATI VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI.....	218
Xakimova Xulkar Xamidovna	
QORAQALPOG'ISTON VA XORAZM OZIQ-OVQAT SANOATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI HAMDA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	224
Tleuov Niyetulla Raxmanovich	
OILAVIY KORXONALARNING IQTISODIY TIZIMDAGI O'RNI.....	230
Shadiyeva Gulnora Mardiyevna, Rustamova Zarina Rustamovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	234
Sadikov Shoxrux Shuxratovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARNING AHAMIYATI.....	238
Asenbaeva Aydaygul Edenbaevna	
BARQARORLIK VA YASHIL MENEJMENT: ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR VA AMALIY AHAMIYATI.....	242
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	



HUDUDLARNING IQTISODIY SALOHİYATINI INNAVATSION-INVESTITSION BOSHQARISH STRATEGIYASI VA MEXANIZMI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	247
Maqsudova Malohatxon Maqsudovna, Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETINI 2026-YILGI SOLIQ SIYOSATINING TAHLILI VA XALQARO SOLISHTIRMA YONDASHUVI	251
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	256
Mamataliyeva Dilnoza Raxmonovna	
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA INVESTITSİYALAR SHAKLLANISHI VA ULARNI SAMARALI BOSHQARISH YO'NALISHLARI	259
To'rayev Jasurali To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA SAVDO TASHKILOTLARINING FAOLIYATI VA RIVOJLANISH HOLATI	264
B. Sulaymonov	
NAMANGAN VILOYATIDA "YASHIL IQTISODIYOT" MODELIGA O'TISH JARAYONIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY FAOLLIGI	270
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	274
Xoshimov Pazliddin Zuxurovich	
KICHIK BIZNES ORQALI ISH O'RINLARINI YARATISH STRATEGIYALARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	278
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
MAMLAKATIMIZDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	283
Quryozov Sardorbek Sharifboevich	
РАЗРАБОТКА И ПРИОРИТИЗАЦИЯ КЛЮЧЕВЫХ ИНДИКАТОРОВ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЛЯ ОБЩЕНАЦИОНАЛЬНОЙ ПАНЕЛИ МОНИТОРИНГА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БОЛЬНИЦ: ЭКСПЕРТНАЯ ОЦЕНКА СО СТОРОНЫ РУКОВОДИТЕЛЕЙ МЕДУЧРЕЖДЕНИЙ	290
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYAT ORGANLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	297
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
BANK TIZIMINING BARQAROR MOLIIYAVIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH VOSITALARI	303
Sadikov Iskandar Gayratovich	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	308
Халиков С. Х.	
HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNI ROLI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORALARI	313
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
ИСТОРИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС СТАНОВЛЕНИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	317
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	321
Isakov Oybek Jamoliddinovich	
NORASMIY KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINING FERMER XO'JALIKLARI YETISHTIRGAN MAHSULOT MIQDORIGA TA'SIRINI BAHOLASH	325
Ismoilov Azamat	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA FOIZ RISKINI BOSHQARISH AMALIYOTI	332
Seitnazarov Daniyar Baxadirovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SUT VA SUT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLOVCHI KORXONALAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	341
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
"AYOL RAHBARLAR: RAHBARLIK SALOHİYATI VA ISH JOYIDA TENGLIK" FRANSIYA DAVLATI TAJRIBASI ASOSIDA	346
Abduraxmonova Feruzabonu	



QISHLOQ XO'JALIGIDAGI KLASSTERLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	352
Dildora Yuldasheva	
TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT BAZASINING YETARLILIGINI TA'MINLASH YO'LLARI	359
I.J. Isakov	
OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA IQTISODIY DIAGNOSTIKA O'TKAZISHNING XORIJ TAJRIBASI	363
Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich, Axmedov Oybek Turg'unpulatovich	
INKLYUZIV TA'LIMNI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISH YO'LLARI.....	369
Egamberdiyeva Dilorom Botir qizi, Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
"KREATIV IQTISODIYOT" HAMDA "TURIZM" TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	374
Abdurasulov Shovqiddin Erkin o'g'li	
THE STRATEGIC ROLE OF THE INDUSTRIAL SECTOR IN THE NATIONAL ECONOMY AND DEVELOPMENT FACTORS.....	380
Rakhimov Bakhromjon Ibroximovich	
INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	386
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
GLOBAL INCOME INEQUALITY IN 2024: CAUSES, PATTERNS, AND CONSEQUENCES.....	393
Ilxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
ТОРГОВЫЕ ОТНОШЕНИЯ В СВОБОДНО ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОНАХ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ	401
Шарифходжаев Шавкат Окилович, Ачилова Ширин Шавкат кизи	
O'ZBEKISTON KON-METALLURGIYA SANOATI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA HOZIRGI HOLATI	407
Ergashov Botirjon Ergashovich	
PENSIYA JAMG'ARMASIDA DAVLAT BUDJETI TRANSFERTLARI ULUSHI HAMDA UNING XORIJ TAJRIBASI	415
Sherjonov Doniyor Saparbayevich	
O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARINI QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDAN FOYDALANIB MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI.....	419
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I BO'YICHA FIRIBGARLIKLAR: MEXANIZMLARI, SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI.....	425
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA QISHLOQ XO'JALIGINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	431
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
TURIZM SOHASINING IJTIMOIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).....	435
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
SANOATDA IQTISODIY MOLIYAVIY HISSOBOTLAR XALQARO STANDARTLARINI RAQOBATBARDOSH KORPORATIV STRATEGIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA QO'LLASH.....	442
Turaboev Ibroxim Ismoil o'g'li	
ФОНДИРОВАНИЕ И СТРАХОВАНИЕ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ АПК: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	447
Дурманов Акмал Шаймарданович	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARI RIVOJLANISHINING STATISTIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	456
Atajanova Guli Maxsudbekovna	
JAHON MOLIYAVIY BOZORLARI BARQARORLIGIGA GLOBAL IQTISODIY INQIROZLAR VA GEOSIYOSIY OMILLARNING TA'SIRI HAMDA ULARNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI	462
Abdurazakova Nargiza Rixsibayevna	



QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA BOSHQARUV QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI.....	467
Mamadiyarov Dilshad Uralovich	
PAXTA TOZALASH KORXONALARINING TARKIBIY BO'LINMALARIDA MOLIVAVIY BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	474
Murodov Orif Jumayevich, G'ulomov Xaydarbek Ilyos o'g'li	
BARQAROR KELAJAK SARI: MAMLAKATDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI MUSTAHKAMLASH	482
Abdullaev Shavkatjon Maxmudillaevich	
ZAMONAVIY IQTISODIY SHAROITLARDI KORXONALARNING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH	487
Abdulakimova Moxina Farxod qizi	
UMUMIY OVQATLANISH SHAHOBCHALARINING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH.....	493
Amiriddinova Muslima Zayniddin qizi	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA MIJOZLAR EHTIYOJINI O'RGANISH VA XIZMAT SIFATINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUHLARI	498
Babayeva Lola Ibragimovna	
MINTAQADA TARIXIY VA MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHDA DAVLAT HAMDA XUSUSIY SHERIKCHILIK TIZIMIDAN FOYDALANISH	504
Xusanov Chari Kadirovich	
PROSPECTS FOR IMPROVING INFRASTRUCTURE FOR SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	509
Botirova Xulkar Olimjonovna	
THE IMPACT OF AGRICULTURAL CLUSTERS ON FOOD SECURITY AND MACROECONOMIC STABILITY	514
Sherkulov Shohruh Erkin ugli	
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISSIQXONA IQTISODIYOTINI O'RNI VA NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR	520
Otavullaev Sukhrob Sa'dullo o'g'li	
IJTIMOY AHAMIYATI YUQORI LOYIHALARNI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	524
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQOBAT STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH	529
Sharopova Nafosat Radjabovna, Jamolova Aziza	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILARNING XULQ-ATVORINI O'RGANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	537
Sultonova Zulxumor, Bobojonov Baxrombek Ro'zimovich	
INTERNATIONAL TRADE BETWEEN INTEGRATION AND ISOLATION: INNOVATION AND UNCERTAINTY IN A FRAGMENTING GLOBAL ECONOMY.....	542
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANIDA SIGIRLAR BOSH SONINING PROGNOZ KO'RSATKICHLARI	548
Sabit Gabbarov	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTINI OSHIRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	552
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Xo'janova Husnora	
O'ZBEKISTONDA IQTISODIY O'SISH SIFAT OMILLARINING TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	558
Bustonov Mansurjon Mardonakulovich	
ОБЩАЯ КОНЦЕПЦИЯ СТАБИЛЬНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ.....	567
Зайналов Джахонгир Расулович	
ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ РЫНКОВ КАПИТАЛОВ	571
Хотамкулова Мадина Санжар кизи, Зайналов Джахонгир Расулович	



IPOTEKA KREDITI MEKANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA AMALIY ISHLAR TAHLILI	576
A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi	
KORXONALARDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	581
Abdurashidova Nigora Alisherovna, Abduqodirova Donoxon	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATINI OSHIRISH OMILLARI VA MEZONLARI.....	588
Jumanov Ruslanbek Bobojanovich	
O'ZBEKISTONIDA MEHNAT BOZORINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	592
Rasulev Alisher Fayziyevich, Qodirov Asliddinxo'ja Mahammadjon o'g'li	
STUDY OF THE ECONOMIC EFFICIENCY OF GREEN BONDS, ECOLOGICAL LOANS, AND GREEN INVESTMENT FUNDS, AS WELL AS THEIR IMPORTANCE IN THE FINANCIAL SYSTEM.....	595
Avazov Azizbek Ashurali o'g'li	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK TERMINOLOGIYASINING ILMIY-TAHLILII TALQINI.....	603
Aripov Oybek Abdullayevich	
O'ZBEKISTONDA MEHNAT BOZORINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	608
Rasulev Alisher Fayziyevich, Qodirov Asliddinxo'ja Mahammadjon o'g'li	
FERMER XO'JALIKLARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI TASHKIL ETISH VA OPTIMALLASHTIRISH.....	611
Kdirbaev Amir Marat uli	
ITALIYA VA YAPONIYADA DAVLAT QARZINING UZOQ MUDDATLI BARQARORLIGI: FISKAL QOIDALAR VA QARZ BOSHQARUVI STRATEGIYALARINING QIYOSIY TAHLILI.....	614
Abdurahimov Abror Zafarovich, L.M. Tashpulatova	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: ВОЗМОЖНОСТИ ПЕРСОНАЛИЗАЦИИ, ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	621
Камалова Малика Низамовна, Очилов Акрам Одилович	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINI IFODALOVCHI ASOSIY OMILLAR	626
Raxmonov Bekzod Sharibjon o'g'li	



O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINI IFODALOVCHI ASOSIY OMILLAR

Raxmonov Bekzod Sharibjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, katta o'qituvchi

bekzod.rahmonov@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga ko'rsatadigan ta'siri tizimli va kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda norasmiy bandlikning keng tarqalishi, mehnat bozorida statistik nomuvofiqlikning yuzaga kelishi, rasmiy sektorning qisqarishi, soliq va ijtimoiy badallar to'lanmasligi oqibatida davlat bandlik siyosati samaradorligining pasayishi kabi omillar asosiy muammo sifatida yoritiladi. Shuningdek, yashirin iqtisodiyotning raqobat muhitiga, mehnat unumdorligiga hamda investitsion faollikka salbiy ta'siri natijasida yangi rasmiy ish o'rinlarining yaratilishi cheklanishi ilmiy jihatdan asoslanadi. Maqolada yashirin iqtisodiyot ishsizlik darajasini bir tomondan statistik jihatdan yashirishi, ikkinchi tomondan esa uzoq muddatli ishsizlik xavfini kuchaytirishi bilan tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari mehnat bozorida shaffoflikni oshirish, norasmiy bandlikni qisqartirish va samarali bandlik siyosatini ishlab chiqishda ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: yashirin iqtisodiyot, ishsizlik, iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, soliq yuki, O'zbekiston iqtisodiyoti.

Abstract. This article analyzes the impact of the shadow economy on the unemployment rate in Uzbekistan based on a systematic and comprehensive approach. The study highlights the main problems of factors such as the widespread informal employment, the emergence of statistical mismatches in the labor market, the reduction of the formal sector, and the reduction in the effectiveness of state employment policy due to non-payment of taxes and social contributions. It also scientifically substantiates that the creation of new formal jobs is limited as a result of the negative impact of the shadow economy on the competitive environment, labor productivity, and investment activity. The article describes the shadow economy as statistically hiding the unemployment rate on the one hand, and increasing the risk of long-term unemployment on the other. The results of the study serve as a scientific and practical basis for increasing transparency in the labor market, reducing informal employment, and developing effective employment policies.

Key words: shadow economy, unemployment, economic growth, inflation, tax burden, economy of Uzbekistan.

Аннотация. В статье анализируется влияние теневой экономики на уровень безработицы в Узбекистане на основе системного и комплексного подхода. В исследовании выделены основные проблемы, связанные с такими факторами, как широкое распространение неформальной занятости, возникновение статистических диспропорций на рынке труда, сокращение формального сектора и снижение эффективности государственной политики занятости населения из-за неуплаты налогов и социальных взносов. Также научно обосновано, что создание новых формальных рабочих мест ограничено в результате негативного влияния теневой экономики на конкурентную среду, производительность труда и инвестиционную активность. В статье рассматривается теневая экономика как фактор, с одной стороны, статистически скрывающий уровень безработицы, а с другой – увеличивающий риск длительной безработицы. Результаты исследования служат научно-практической основой для повышения прозрачности рынка труда, сокращения неформальной занятости и разработки эффективной политики занятости.

Ключевые слова: теневая экономика, безработица, экономический рост, инфляция, налоговая нагрузка, экономика Узбекистана.

KIRISH

Bugungi yangi O'zbekiston va iqtisodiy transformatsiya sharoitida mehnat bozori muammolari, xususan, ishsizlik va norasmiy bandlik masalalari ko'plab davlatlar uchun dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida O'zbekistonda ham iqtisodiy islohotlar chuqurlashib borar ekan, bandlikni ta'minlash, barqaror ish o'rinlarini yaratish va yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirish muhim



ijtimoiy-iqtisodiy vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, yashirin iqtisodiyotning keng tarqalishi mehnat bozorida real holatni to'liq aks ettirishga to'sqinlik qilib, ishsizlik darajasini aniqlash va baholash jarayonini murakkablashtirmoqda.

Yashirin iqtisodiyot davlat tomonidan to'liq nazorat qilinmaydigan, rasmiy hisob-kitoblar hamda soliq tizimida aks ettirilmaydigan va amaldagi qonun me'yorlariga zid tarzda amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatlar majmuasini anglatadi. Bunday sharoitda band bo'lgan shaxslar mehnat huquqlari, ijtimoiy kafolatlar va qonuniy himoya vositalaridan tashqarida qoladi. Natijada ular barqaror mehnat sharoitlariga ega bo'lmay, turli ijtimoiy xavflarga duch kelishadi. Shu bilan birga, yashirin iqtisodiyotning kengayishi nafaqat alohida fuqarolarning turmush darajasiga, balki butun mamlakat miqyosida iqtisodiy o'sish sur'atlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatib, mavjud mehnat resurslaridan samarasiz foydalanilishiga sabab bo'ladi.

O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning mavjudligi va uning ishsizlikka ta'siri o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Bir tomondan, norasmiy bandlik ayrim aholining daromad topish imkoniyatini yaratib, qisqa muddatda ishsizlik bosimini yumshatgandek ko'rinadi. Boshqa tomondan esa, rasmiy sektorda ish o'rinlari qisqarishi, soliqlar tushumining kamayishi, mehnat unumdorligining pasayishi va investitsion muhitning yomonlashuvi kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Natijada rasmiy statistikada ishsizlik darajasi to'liq va aniq aks etmasdan, real mehnat bozori holati bilan nomuvofiqlik yuzaga keladi.

Mazkur tadqiqot ishining asosiy maqsadi O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga ko'rsatadigan ta'sirini aniqlash, bu jarayonning asosiy omillarini tahlil qilish va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yoritishdan iboratdir. Tadqiqot natijalari mehnat bozorini tartibga solish, norasmiy bandlikni qisqartirish va bandlik siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

E.Feige o'z ilmiy ishida yashirin iqtisodiyot va norasmiy sektor o'rtasidagi tafovutlarni aniqlaydi hamda ularni baholashda yangi institutsional iqtisodiyot yondashuvini taklif qiladi. Muallif institutlarning zaifligi, mulk huquqlarining himoyalanganligi va rasmiy tizimga ishonchsizlik yashirin iqtisodiyotning ildizlari ekanini ta'kidlaydi. U, shuningdek, yashirin faoliyatlar iqtisodiy samaradorlikni kamaytirishi va makroiqtisodiy rejalashtirishni qiyinlashtirishini asoslaydi.

C.Williams va J.Windebank maqolasida yashirin iqtisodiy faoliyatning ijtimoiy jihatlarini tahlil qiladi. Mualliflar norasmiy mehnatning sabablari faqat iqtisodiy emas, balki madaniy va ijtimoiy omillar bilan ham bog'liq ekanini ko'rsatadi. Masalan, oilaviy yordam, jamoaviy xizmatlar yoki ishonch asosida bajariladigan ishlar rasmiy statistikalarda aks etmasligi mumkin. Yashirin iqtisodiyotning strukturaviy jihatlarini o'rganishda sotsiologik yondashuvning afzalliklarini asoslaydi.

Y.Davydov Rossiya misolida yashirin iqtisodiyotning shakllanish omillari, turlari va unga qarshi kurashish usullarini tahlil qiladi. Muallif soliq tizimidagi murakkablik, davlat boshqaruvidagi korrupsiya va past nazorat darajasi yashirin iqtisodiyotni rag'batlantiruvchi omillar sifatida ko'rsatadi. Shuningdek, u davlat nazoratining samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, fuqarolik ongini oshirish va iqtisodiy rag'batlar yaratishni asosiy yechimlar sifatida tavsiya etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi yashirin iqtisodiyot va ishsizlik darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni sodda va tushunarli tarzda aniqlashga qaratildi. Unda asosan rasmiy statistik ma'lumotlar, davlat va xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda mavjud ilmiy manbalar tahlil qilindi. Ma'lumotlar o'zaro solishtirish, umumlashtirish va guruhlash usullari yordamida o'rganildi. Shuningdek, yashirin iqtisodiyot ko'rsatkichlari bilan ishsizlik darajasi o'rtasidagi bog'liqlik oddiy tahliliy va taqqoslash usullari asosida baholandi. Ushbu yondashuv muammoning mohiyatini aniqroq ochib berish va xulosalarning ishonchli bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashirin iqtisodiyot mehnat bozori ko'rsatkichlariga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatib, ishsizlik darajasining rasmiy statistikada noto'g'ri baholanishiga sabab bo'ladi. Norasmiy sektorda faoliyat yuritayotgan aholi qatlamining kengayishi rasmiy bandlik ko'rsatkichlarini sun'iy ravishda pasaytiradi va real ishsizlik darajasini yashiradi. Bu holat mehnat bozori samaradorligini baholashni murakkablashtiradi. Yashirin iqtisodiy faoliyat aholining muayyan qismini rasmiy mehnat bozorida siqib chiqarib, norasmiy bandlikka yo'naltirmoqda. Bunday bandlik shakllari odatda past samaradorlik, barqaror daromad manbaining yo'qligi va ijtimoiy kafolatlarning cheklanganligi bilan tavsiflanadi. Natijada, ishsizlikning yashirin shakllari yuzaga keladi.



Rasmiy va norasmiy bandlik o'rtasidagi tafovut tahlili shuni ko'rsatdiki, norasmiy sektorda band bo'lgan shaxslar odatda rasmiy statistika doirasidan chetda qoladi. Bu esa ishsizlik darajasi bo'yicha haqiqiy vaziyatni aniqlash imkonini kamaytiradi va mehnat siyosatini ishlab chiqishda noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga olib keladi. Yashirin iqtisodiyotning kengayishi mehnat resurslarining samarali taqsimlanishiga to'sqinlik qiladi. Sababi, norasmiy mehnat bozorida faoliyat yuritayotgan shaxslar ko'pincha o'z malakasiga mos kelmaydigan yoki past umumli sohalarida ishlaydi. Bu esa umumiy mehnat unumdorligining pasayishiga sabab bo'ladi. O'rganilgan ma'lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, yashirin iqtisodiyot nafaqat joriy ishsizlik holatiga, balki uzoq muddatli mehnat bozoriga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Norasmiy sektorda uzoq vaqt ishlagan shaxslar keyinchalik rasmiy bandlikka qaytishda qiyinchiliklarga duch keladi, bu esa strukturaviy ishsizlikni kuchaytiradi.

1-jadval. O'zbekistonning aholi va mehnat resurslari dinamikasi tahlili¹

No	Ko'rsatkichlar (ming kishi)	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1	Doimiy aholi soni (ayol)	15 999,5	16 258,8	16 544,9	16 859,9	17 180,5	17 527,1	17 896,3	18 274,8
2	Doimiy aholi soni (erkak)	16 121,0	16 397,9	16 710,6	17 045,3	17 378,4	17 744,2	18 128,6	18 525,0
3	Mehnat resurslari soni	18 666,3	18 829,6	18 949,0	19 158,2	19 334,9	19 517,5	19 739,6	20 085,2
4	Iqtisodiy faol aholi soni	14 357,3	14 641,7	14 876,4	14 797,4	14 980,7	15 038,9	15 038,3	15 097,9
5	Iqtisodiy nafaol aholi soni	4 309,0	4 187,9	4 072,6	4 360,8	4 354,2	4 478,6	4 701,3	4 987,3
6	Iqtisodiyotda bandlar soni	13 520,3	13 273,1	13 541,1	13 236,4	13 538,9	13 706,2	14 014,2	14 261,9
7	Ishsizlar soni	837,0	1 368,6	1 335,3	1 561,0	1 441,8	1 332,7	1 024,1	836,0

O'zbekiston aholisining yil sayin ortib borayotgani mehnat bozori talab va taklifining o'zgarishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. 2017–2024-yillar davomida ayollar soni 15,9 mln.dan 18,2 mln.ga, erkaklar soni esa 16,1 mln.dan 18,5 mln.ga yetgani demografik bosimning ortganini ko'rsatadi. Bunday sharoitda rasmiy sektor barcha mehnatga layoqatli aholiga yetarli ish o'rinlari yarata olmasa, ularning ma'lum qismi yashirin iqtisodiy faoliyatga kirib ketadi. Demak, aholining tez sur'atlar bilan ko'payishi yashirin bandlikni rag'batlantiruvchi asosiy demografik omillardan biri hisoblanadi.

Mehnat resurslari sonining barqaror o'sib borishi, bir tomondan, iqtisodiy salohiyatning kengayayotganini anglatadi, biroq iqtisodiy faol aholining o'sishi bundan keskin farq qilmayotgani mehnat bozorida strukturaviy nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatadi. Jadvalda iqtisodiy faol aholi soni 2019-yildan boshlab deyarli o'zgarmas holda 15 mln.ga yaqin darajada qolmoqda. Bu esa mehnat resurslarining bir qismi faol bandlikka kira olmay, iqtisodiy nafaol qatlamga yoki norasmiy mehnat sektoriga yo'nalishi ehtimolini oshiradi. Yashirin iqtisodiyot mehnat resurslari ortiqchasi uchun "so'ruvchi mexanizm" vazifasini bajarib, rasmiy statistikada ko'rinmaydigan bandlik shakllarini kuchaytiradi.

Iqtisodiyotda rasmiy bandlar sonining o'zgarish dinamikasi ham yashirin iqtisodiyotning shakllanishiga ta'sir etuvchi muhim ko'rsatkichdir. 2017–2024-yillar davomida bandlar soni sezilarli tebranishlar bilan asta-sekin o'sib borgan bo'lsa-da, u aholining o'sish sur'atlarini to'liq qoplay olmagan. Eng muhim jihat — 2018–2020-yillarda bandlikning pasayishi kuzatilgan bo'lib, aynan shu davrda ishsizlar sonining keskin oshgani qayd etiladi. Rasmiy bandlikdagi bunday qisqarish sharoitida aholining bir qismi daromad manbaini saqlab qolish maqsadida norasmiy ish faoliyatiga o'tishga majbur bo'lgan. Bu esa yashirin iqtisodiyot ulushining oshishiga bevosita sabab bo'ladi.

Ishsizlik darajasining 2017-yildagi 837 ming kishidan 2018–2020-yillarda 1,3–1,5 mln. kishigacha ko'tarilishi, so'ng 2023–2024-yillarda keskin kamayishi yashirin iqtisodiyot va rasmiy bozor o'rtasidagi o'zaro ta'sirni yanada yaqqol namoyon etadi. Ishsizlikning ko'tarilgan davrlarida norasmiy sektor qo'shimcha ish o'rinlari yaratib, aholining katta qismini o'ziga singdirgan bo'lishi mumkin. Aksincha, iqtisodiyot tiklana boshlagach rasmiy sektor kengayib, yashirin bandlikdagi ayrim guruhlar qayta rasmiy mehnat bozoriga qaytgan bo'lishi ehtimol. Shu bois, statistik tendensiyalar O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning shakllanishi va kengayishida demografik bosim, rasmiy bandlik imkoniyatlari hamda iqtisodiy faollik darajasidagi tebranishlar asosiy omillar sifatida namoyon bo'layotganini ko'rsatadi.

1 Muallif tomondan milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

2-jadval. Yashirin iqtisodiyot va ishsizlik o'rtasidagi asosiy bog'liqlik²

Ko'rsatkich	Ta'sir yo'li	Natija
Norasmiiy bandlik	Rasmiy statistikadan yashirin	Ishsizlik sun'iy pasayadi
Soliq to'lanmasligi	Davlat byudjeti qisqaradi	Yangi ish o'rinlari kamayadi
Mehnat kafolatlari yo'qligi	Barqarorlik yo'qoladi	Yashirin ishsizlik o'sadi
Past unumdorlik	Samarasiz mehnat	Strukturaviy ishsizlik kuchayadi

Jadvaldan ko'rinadiki, yashirin iqtisodiyot turli mexanizmlar orqali ishsizlikni bevosita va bilvosita kuchaytiradi. Xususan, soliq tushumlarining qisqarishi davlatning bandlik dasturlarini moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi, bu esa yangi ish o'rinlari yaratilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayon makroiqtisodiy barqarorlikka ham ta'sir qiladi. Yashirin sektorda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar rasmiy YalM tarkibiga kiritilmasligi natijasida iqtisodiy rivojlanish darajasi noto'g'ri baholanadi. Bu esa investitsiya muhitiga va biznes ishonchiga salbiy ta'sir qiladi.

Yashirin iqtisodiyot oshgani sari norasmiiy bandlik kengayadi, bu esa rasmiy sektorning qisqarishiga va yashirin ishsizlikning ortishiga olib keladi. Bu jarayon "yashirin mehnat spiralini" vujudga keltirib, iqtisodiyotning sog'lom rivojlanishini susaytiradi. Aholining aynan yoshlar va malakasiz qatlamlari yashirin sektorda ko'proq to'planishi aniqlandi. Bu esa yoshlar ishsizligi bilan bog'liq muammolarni yanada murakkablashtiradi. Chunki ular rasmiy ish tajribasiga ega bo'lmay, kadrlar bozorida raqobatbardoshligini yo'qotadi. Yashirin iqtisodiyot ayollar bandligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ko'plab ayollar norasmiiy xizmat ko'rsatish, savdo yoki uy mehnati bilan shug'ullanganligi sababli, ularning mehnati tan olinmaydi va ijtimoiy himoya tizimidan chetda qoladi.

O'zbekistonda yoshlar mehnat bozorida eng sezgir guruh sifatida ajralib turadi. Ular uchun ta'sir darajasi yuqori bo'lishining asosiy sababi — rasmiy ish tajribasining yetishmasligi hamda barqaror ish o'rinlariga kirishdagi cheklovlardir. Yoshlarning katta qismi mehnat faoliyatini norasmiiy sektorda boshlashi yashirin iqtisodiyotning kengayishiga bevosita turtki beradi. Bu holat rasmiy bandlik tizimiga integratsiya jarayonini kechiktiradi va mehnat bozorida tarkibiy nomutanosibliklarni kuchaytiradi.

Ayollar uchun yashirin iqtisodiyotga tortilish darajasi o'rta-yuqori bo'lib, bu ularning ijtimoiy himoya tizimlaridan to'liq foydalana olmasligi bilan izohlanadi. Rasmiy ish joylarida ayollar uchun yaratilgan sharoitlar cheklangan hollarda ular norasmiiy bandlikni vaqtinchalik yechim sifatida qabul qiladi. Natijada ayollarning iqtisodiy faolligi statistik jihatdan past ko'rinadi, biroq ular norasmiiy sektor orqali iqtisodiy hayotda faol ishtirok etishda davom etadi. Bu esa gender tengligi va mehnat bozori samaradorligi masalalarini yanada dolzarblashtiradi.

Qishloq aholisi uchun yashirin iqtisodiyotning ta'siri ayniqsa yuqori bo'lib, bu hududlarda iqtisodiy faollik ko'proq mavsumiy xarakterga ega. Qishloq xo'jaligi va qurilish kabi sohalarida tez-tez yuz beradigan mavsumiy bandlik aholining doimiy rasmiy ishga ega bo'lish imkoniyatini cheklaydi. Natijada qishloq aholisi norasmiiy mehnatga osonlik bilan o'tadi, bu esa rasmiy iqtisodiy statistikani pasaytiradi va soliqqa tortish bazasini toraytiradi. Qishloq hududlarida mehnat bozori barqarorligini oshirish uchun institutsional islohotlar talab etiladi.

Migrantlar ham yashirin iqtisodiyot ta'siriga eng ko'p duch keladigan guruhlardan biri hisoblanadi. Ular uchun asosiy muammo — huquqiy himoyaning yetarli emasligidir. Migrantlar ko'pincha rasmiy hujjatlarning yo'qligi, mehnat shartnomalarining rasmiylashtirilmasligi yoki mehnat bozori haqida ma'lumot yetishmasligi sababli norasmiiy ish faoliyatiga majbur bo'ladilar. Bu jarayon nafaqat ularning ijtimoiy himoyasiz qolishiga, balki iqtisodiyotning yashirin segmentining kengayishiga ham olib keladi. Shu bois migratsiya jarayonlarini tartibga solish va huquqiy kafolatlarni kuchaytirish yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytirishning muhim omillaridan biridir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta'siri murakkab, ko'p omilli va o'zaro bog'liq jarayonlar bilan tavsiflanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, demografik bosimning oshishi, rasmiy bandlikning o'sish sur'atlarining sustligi va iqtisodiy faollikning barqaror bo'lmashligi norasmiiy mehnat sektorining kengayishiga sharoit yaratmoqda. Aholi sonining tez ortishi rasmiy sektor zimmasiga qo'shimcha bandlik yukini yuklaydi, bu talab to'liq qoplanmaganda esa norasmiiy faoliyatning o'sishi tabiiy holga aylanadi. Natijada yashirin mehnat bozorining kengayishi rasmiy ishsizlik ko'rsatkichlarining quyiroq qayd etilishiga sabab bo'lib, statistik nomuvofiqliklar yuzaga keladi.

Tahlillar shuni anglatadiki, norasmiiy bandlikning kuchayishi davlatning iqtisodiy boshqaruv mexanizmlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, soliq tushumlarining kamayishi bandlik siyosatini moliyalashtirish

2 Muallif tomondan tayyorlandi



imkoniyatlarini cheklaydi va yangi ish o'rinlari yaratish jarayonini sekinlashtiradi. Past unumdorlikka ega yashirin mehnat faoliyati esa mehnat resurslarining samarali taqsimlanishiga to'sqinlik qilib, iqtisodiy o'sish salohiyatini pasaytiradi. Uzoq muddatda ushbu jarayon strukturaviy ishsizlikning kuchayishiga olib keladi, chunki norasmiy sektorda uzoq ishlagan shaxslar rasmiy ish bozoriga qayta kirishda raqobatbardoshligini yo'qotadi.

Yashirin iqtisodiyotning ijtimoiy guruhlariga ta'siri tahlili ushbu jarayonning notekis taqsimlanganini ko'rsatdi. Yoshlar, ayollar, qishloq aholisi va migrantlar norasmiy mehnatga eng ko'p jalb etilgan guruhlar qatoriga kiradi. Bu holat ularning mehnat huquqlarining to'liq ta'minlanmasligi, ijtimoiy himoya va barqaror daromad manbaiga ega bo'lmaslik kabi xavflarni kuchaytiradi. Ayniqsa, yoshlarning norasmiy sektorda to'planishi bandlik siyosati uchun dolzarb muammolardan biri bo'lib, kelajakda malaka va tajriba yetishmovchiligi sababli strukturaviy ishsizlik xavfini yanada oshiradi.

Umuman olganda, O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning kengayishi nafaqat ishsizlik darajasining haqiqiy holatini aniqlashni qiyinlashtiradi, balki mehnat bozori samaradorligini pasaytiradi, iqtisodiy o'sish sur'atlarini cheklaydi va ijtimoiy himoya tizimining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois mehnat bozorida shaffoflikni kuchaytirish, norasmiy bandlikka qarshi institutsional mexanizmlarni kuchaytirish, rasmiy sektorning jozibadorligini oshirish hamda ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish yashirin iqtisodiyotning qisqarishi va barqaror bandlik siyosatini shakllantirish uchun muhim vazifalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Sh.Shodmonov, U.V.Gofurov "Iqtisodiyot nazariyasi" darslik, — T.: IQTISOD-MOL1YA, 2010. - 728 bet.
2. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: Darslik — T.: IQTISODIYOT, 2018. —628 b
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Mehnat bozori ko'rsatkichlari bo'yicha yillik statistik to'plam. — Toshkent: Statistika agentligi nashriyoti, 2018–2024 yillar.
4. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. O'zbekiston mehnat bozori sharhi. — Toshkent: BMMV nashriyoti, 2021.
5. Jahon Banki. Uzbekistan Jobs Diagnostic Report. — Washington D.C., 2022.
6. International Labour Organization (ILO). Informal Economy and Decent Work: Global Report. — Geneva: ILO Publishing, 2020.
7. Kuznets, S. Economic Growth and Income Inequality. — American Economic Review, 1955.
8. Schneider, F., Medina, L. Shadow Economies Around the World: What Did We Learn Over the Last 20 Years? — IMF Working Paper, 2019.
9. Qosimov, B. Yashirin iqtisodiyotning shakllanishi va uni kamaytirish mexanizmlari. — Toshkent: Iqtisodiyot universiteti nashriyoti, 2021.
10. Karimov, A. Mehnat bozori va ishsizlik muammolari: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>